

ETNOLOGIYA - XALQLAR TO'G'RSIDAGI FAN

FarDU akademik litseyi tarix fani o'qituvchisi

D. Paxriddinova

Annotatsiya: *Mazkur maqolada etnologiya fanining kelib chiqishi tarixi shuningdek, uni tarix fanini o'rganishdagi o'ziga xos bo'lgan jihatlar, jahon etnograf olimlari faoliyati haqida bayon qilingan.*

Abstract: *This article describes the history of the origin of the science of ethnology, as well as its unique aspects in the study of history, and the activities of world ethnographers.*

Kalit so'zlar: *etnologiya, gumanitar fanlar, etnomadaniy taraqqiyot.*

Keywords: *ethnology, humanities, ethnocultural development.*

Har qandey fanning fan sifatida shakllanishi inson ehtiyoji bilan bog'liqdir. Insoniyatning tarixiy taraqqiyoti davomida davomida yashab o'tgan barcha etnoslar o'ziga xos turmush tarzi , urf – odat va an' analari bilan bir – biridan ajralib turgan. Eng qadimgi davrlardan boshlab kishilar nafaqat o'zlarining , balki tevarak atroflari va uzoq yurtlarda yashovchi el -uluslarning madaniyati , an'analarga ham qiziqqanlar . Ular tog'risida ma'lumotlarga ega bo'lishga harakat qilganlar . Antik davr mualliflari ko'plab empirik materiallarni yig'ishga , turli - tuman xalqlarning xojalik va madaniy belgilariga qarab tavsiflashga intilganlar . Lekin ularning asosiy qismi asosan jangchilar , sayyohlar , elchilar va boshqa mamlakatlarga turli maqsadlarda bo'lgan kishilarning xotiralari yoki o'zga yurtlar to'g'risidagi turli – tuman rivoyatlarga asoslanib ma'lumotlar berganliklari bois mazkur ma'lumotlar umumiy yoki mavhumiy xususiyatlar kasb etgan.

“Etnologiya - xalqlar to'g'risidagi mustaqil fan sifatida XIX asr o'rtalarida paydo bolgan. Mazkur fanning aynan shu davrda paydo bo'lishining o'ziga xos sabablari mavjud. Bu davrda dunyo qit 'alari orasida iqtisodiy, madaniy aloqalarning jadallashuvi sabab bo'lgan bo'lsa , boshqa tomondan mazkur davrdagi mustamlakachilik siyosati ham turtki bo'lgan”.¹⁴⁶

Buyuk geografik kashfiyotlarning amalga oshirilishi dunyoning turli mintaqalari orasida o'zaro etnomadaniy taraqqiyotdagi farqlarni , boshqa ellarda yashovchi etnik guruhlarining o'ziga xos etnopsixologiyasi va ularning etnik o'zlikni anglash mexanizmi , tarixning ma'lum davrlarida u yoki bu xalqning tutgan o'rni , sivilizatsiyalar va madaniyatlar taraqqiyoti hamda tanazzulida etnik omilning o'rni kabi muommolarni paydo qildi.

“Etnologiya fanining nomi ham boshqa ko'plab ijtimoiy – gumanitar fanlar kabi yunoncha etnos (etnos) va logos (fan) so'zlaridan olingan bo'lib „ xalq tog'risidagi fan degan manoni bildiradi”¹⁴⁷

¹⁴⁶ A . Ashirov „ Etnologiya “. T-yangi Nashr 2014 – yil – B 15 .

¹⁴⁷ R. H. Winthrop. „Dictionary of Soncepts in Sultural Anthropology . N . Y . L .1991 . – P . 101.

“Etnos” so’zi ilk bor qadimgi grek tilidagi manbalarda uchraydi . Taxminan miloddan avvalgi VI – V asrlarda bu so’z kelib chiqishi grek bo’lmagan urug’ va qabilalarga nisbatan qo’llanilgan . Mazkur ibora Rim madaniyati va lotin tilida ishlatilgan aynan shu ma’noda.

XVIII asr oxirlarida etnos tushunchasi chegaralangan tarzda is’temolda bo’lgan. Faqat XIX asrdan e’tiboran bu atama ilmiy adabiyotlarda “xalq” ma’nosida keng qo’llanila boshlagan . XIX asrgacha “etnologiya” iborasida maxsus fanga nisbatan balki turli etnografik jarayonlarni tavsiflash maqsadidagina ishlatilgan .

“Etnologiya atamasi fanga ilk marotaba 1784- yilda A. SHvann tomonidan olib kirilgan . Oxirgi yillarda tadqiqotlar shundan dalolat beradiki , mazkur fan 1774 – yil yozma manbalarda , alohida fan tarmog’i , ya’ni “etnografiya” ko’rinishida davlatlar tarixini xalqlar tarixidan farqlash maqsadida qo’llanilgan. “¹⁴⁸

Etnologiya mustaqil fan sifatida bir qator etnologlar jamiyatlari Parijda Fransiya etnologlari jamiyati (1839-y), Amerika etnologlar jamiyati (1842-y), London etnologlari jamiyati (1843-y), keyinchalik 1871- yil Buyuk Britaniya va Irlandiya qirollik antropologiya insitutiga birlashgan , 1869- yil Germaniyada antropologiya , etnologiya jamiyati va 1871 – yilda esa Italiya antropologlari va etnologlari jamiyatining tuzilishi bilan rasman tasdiqlangan .

“Etnografiya yunoncha “etnos”- xalq , “grafiya” tavsiflash degan ma’nolarni anglatadi . Mazkur fanning metodologik masalalariga bag’ishlangan qator ishlardan ko’rinadiki “etnologiya” va “etnografiya” tushunchalarini aynan bir tushunchalar tarzida qabul qilish ham to’g’ri emas . Sababi , agar an’anaviy “etnografiya” u yoki bu etnosga (etnik birlik) oid bo’lgan materiallarni to’plab , tizimlashtirib va ularni ko’proq tavsiflab betrsa „etnologiya “ etnos haqidagi barcha ma’lumotlarni nazariy- metodologik jihatdan tahlil qiladi va bu xususda umumiy xulosalar chiqaradi . Etnologiya tushunchasi “etnografiya” tushunchasiga nisbatan nafaqat kengroq , balki etnografiya etnologiyaning ma’lum bir qismi deb aytish mumkin.

O’z navbatida shuni ham ta’kidlash joizki , har bir mamlakatda mazkur fanning paydo bo’lishi tarixi va nomlanishi o’ziga xos tarixga ega”¹⁴⁹

“Yevropada etnologiya mustaqil fan tarzida dastlab Fransiya , Parij etnograflar jamiyatining tuzilishi bilan o’z tasdig’ini olgan . XIX asrning ikkinchi yarmida Yevropadagi boshqa yirik davlatlar kabi Fransiya siyosiy doiralari tomonidan mustamlakachilik siyosatining kuchayishi va mustamlakalarni boshqarish mexanizmining murakkablashuvi qaram xalqlar to’g’risida kengroq ma’lumotlarga ega bo’lishni , ularning milliy xususiyatlari , o’tmish tarixi , turmush tarzi madaniyati va an’analari haqida batafsil ma’lumot olishni talab qilgan . Shu sabab etnologiya “ etnografiya” deb yuritilgan.” ¹⁵⁰

Fransiya mazkur atama XIX asr oxirigacha ilmiy muomilada bo’lgan. XX asr boshlarida fransuz tadqiqotchilari tomonidan etnografiyaga tarixiy va nazariy materiallarni jalb etgan holda izlanishlar olib borishi natijasida etnografiya etnologiyaga aylangan va hozirda fransuz olimlari tomonidan asosan etnologik tadqiqotlar olib boriladi.

¹⁴⁸ Фермолейю Х Ф „ Этнографическое обозрение”1994 . С - 101

¹⁴⁹ А. Ashirov . „Etnografiya -T” Yangi nashr . – В 17-18 .

¹⁵⁰ Луры. С. В „ Историческая этнология “1998 -Й. С. 5

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR;

1. А . Ashirov "Etnologiya". T- yangi Nashr 2014 – yil
2. R. H. Winthrop. "Dictionary of Soncepts in Sultural Anthropology" . N.Y.L.1991
3. Фермолейю Х Ф "Этнографическое обозрение" 1994 . С - 101
4. Лурь. С. В "Историческая этнология:1998 -г.

Артикова Ш. МЕЖКУЛЬТУРНЫЕ РАЗЛИЧИЯ В ОЦЕНКЕ ВЕЖЛИВОСТИ ПРИ ПЕРЕВОДЕ И ИНТЕРПРЕТАЦИИ ТЕКСТОВ //Академические исследования в современной науке. – 2024. – Т. 3. – №. 44. – С. 109-111.

Артикова Ш. МЕЖКУЛЬТУРНЫЕ РАЗЛИЧИЯ В ОЦЕНКЕ ВЕЖЛИВОСТИ ПРИ ПЕРЕВОДЕ И ИНТЕРПРЕТАЦИИ ТЕКСТОВ //Академические исследования в современной науке. – 2024. – Т. 3. – №. 44. – С. 109-111.

Артикова, Ш. (2024). МЕЖКУЛЬТУРНЫЕ РАЗЛИЧИЯ В ОЦЕНКЕ ВЕЖЛИВОСТИ ПРИ ПЕРЕВОДЕ И ИНТЕРПРЕТАЦИИ ТЕКСТОВ. Академические исследования в современной науке, 3(44), 109-111.

Артикова, Ш. (2024). МЕЖКУЛЬТУРНЫЕ РАЗЛИЧИЯ В ОЦЕНКЕ ВЕЖЛИВОСТИ ПРИ ПЕРЕВОДЕ И ИНТЕРПРЕТАЦИИ ТЕКСТОВ. Академические исследования в современной науке, 3(44), 109-111.

Артикова Ш. М. Вежливость В Семейной Риторике Узбекистана И Англии: Культурные Различия //International Conference on Linguistics, Literature And Translation (London). – 2024. – Т. 8. – С. 98-101.

Артикова, Ш. М. (2024, October). Вежливость В Семейной Риторике Узбекистана И Англии: Культурные Различия. In International Conference on Linguistics, Literature And Translation (London) (Vol. 8, pp. 98-101).

Артикова, Ш. М. (2024, October). Вежливость В Семейной Риторике Узбекистана И Англии: Культурные Различия. In International Conference on Linguistics, Literature And Translation (London) (Vol. 8, pp. 98-101).

Shaxnoza A. PROSODIC FEATURES OF SPEECH FORMS OF ADDRESS IN ENGLISH DISCOURSE IN COMPARISON WITH RUSSIAN //Journal of Modern Educational Achievements. – 2022. – Т. 1. – С. 33-38.

Shaxnoza, Artikova. "PROSODIC FEATURES OF SPEECH FORMS OF ADDRESS IN ENGLISH DISCOURSE IN COMPARISON WITH RUSSIAN." Journal of Modern Educational Achievements 1 (2022): 33-38.

Shaxnoza, A. (2022). PROSODIC FEATURES OF SPEECH FORMS OF ADDRESS IN ENGLISH DISCOURSE IN COMPARISON WITH RUSSIAN. Journal of Modern Educational Achievements, 1, 33-38.

Artikova, Shaxnoza Maxamadovna. "О НЕОБХОДИМОСТИ ОБУЧЕНИЯ ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН." Theoretical & Applied Science 5 (2020): 79-83.

Artikova, S. M. (2020). О НЕОБХОДИМОСТИ ОБУЧЕНИЯ ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН. Theoretical & Applied Science, (5), 79-83.

Artikova S. M. О НЕОБХОДИМОСТИ ОБУЧЕНИЯ ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ В
РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН //Theoretical & Applied Science. – 2020. – №. 5. – С. 79-83.